

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Mavzu: . “Олмос камар” - ўзбек урбанистик романи

Bajardi _____

Ilmiy rahbar _____

Taqrizchi _____

Himoyaga ruxsat etildi “ _____ ” 2012 yil

Kafedra mudiri _____

Buxoro-2012

R E J A

KIRISH

1 BOB. “Olmos kamar” - o’zbek urbanistik romani.

- 1.1.** P.Qodirov asarlarining o`ziga xosligi.
- 1.2.** “Olmos kamar” - o’zbek urbanistik romani.
- 1.3.** “Olmos kamar”da shahar hayoti va uning inson ruhiyatiga ta’siri.

2 BOB. MDH mamlakatlarida urbanistik asarlar.

- 2.1.** Urbanistik asarlarda fan-texnika va zamonaviy shahar taraqqiyotining berilishi.
- 2.2.** “Olmos kamar” va “Otkan kunlar” asarlarida milliylikning o`ziga xosligi
- 2.3.** Urbanistik asarlar va ularning “Olmos kamar” bilan qiyosiy tahlili.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi

70-yillarda sobiq Ittifoq adabiyotida deyarli bir vaqtda ketma-ket shahar muammolariga bag'ishlangan katta epik asarlar paydo bo'la boshladi. Rus adibi Sergey Zaliginning "Janubiy Amerika varianti", ozar yozuvchisi Anorning "Besh vaqtli uyning oltinchi qavati", "Oq ko'rfaz" asarlarida, asosan, shahar hayoti doirasidagi oilalar taqdiri yoritildi. Ularni "oilaviy" romanlar tipiga kiritish mumkin.

Litvalik adib M.Slutkisning "Toqqa sayohat" asarida esa shahar turmushi bilan aloqadorlikdagi sarguzashtnamo muammolar talqin etildi. Tanqidchilik uni "sayohat" romanining namunasi deb baholadi.

Valentin Rasputinning "Matyora bilan xayrlashuv", Yuriy Trifonovning "Almashish" qissalarida qahramonlarning qishloqdan shaharga va shahar chetidan markazga ko'chishi munosabati bilan shahar hayotining ko'pqatlamli ma'naviy muammolari badiiy aks ettirildi. Bu fazilat ularni yuqorida qayd qilingan "oilaviy" va "sayohat" romanlaridan ajratib turadi.

Belorus yozuvchisi Ivan Shamyakinning "Atlantlar va kariatidalar" romanida esa katta shahar qurilishi fonida qahramonlarning ichki olami badiiy aks ettirilgan. Asarda arxitektorlar ishi, taqdiri, tuzayotgan loyihalari va ularning atrofidagi bahs-munozaralar, qahramonlarning o'z oilasiga, do'stlariga, qarindosh-urug'lariga munosabati shahar va shaharliklar muammolariga bog'liq ravishda yoritilgan.

Taniqli o'zbek adibi Pirimqul Qodirovning "Olmos kamar" romanini ham shu yo'nalishda yaratilgan o'zbek adabiyotidagi dastlabki urbanistik asar deb hisoblash mumkin. To'g'ri, bu romanlar ularda tasvirlangan adabiy qahramonlar, shaharlar va hududlar, milliy urf-odatlar

nuqtai nazaridan bir-biriga o'xshamaydi. Ammo ayni vaqtda asar qahramonlari – me'morlar (Abror, Karnach) tabiati, xarakteri, ular hal etmoqchi bo'lgan ishlar o'rtasida yaqinlik, o'xshashlik, mushtaraklik ham bor. Buni tushunish qiyin emas. Chunki bir davlatda yashab turgan me'morlar bir-biriga o'xshash muammo va vazifalarni hal etishlari tabiiydir. Bu tabiiylik esa, yozuvchilarga ta'sir etmasligi mumkin emas. Albatta, buning ustiga, mazkur asarlar yaratilgan davrda sobiq Ittifoq adiblariaro g'oyaviy yakdilligu mafkuraviylik hukm surganini ham nazardan qochirmaslik kerak. Ammo, zamon va tuzum muhri bo'lgan bu birlikdan qat'iy nazar, talabchan adiblarning asarlari badiiy jihatlari bilan bir-biridan yaqqol farqlanib turadi. S.Zaligin, P.Qodirov, I.Shamyakin, V.Rastupin asarlariga ana shunday xususiyatlar xosdir.

Yuqorida aytib o'tilgan asarlar mavzu va muammosiga ko'ra hanuzgacha qiyosiy planda tadqiq qilinmagan. Holbuki, bunday tahlil o'zbek adabiyotining adabiyotlararo o'rnini, badiiy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarini, adiblarimizning badiiy saviyasini aniqlashga yordam beradi.

Bu asarlar turli adiblar tomonidan yozilganligi, qahramonlari turli xalqlarning vakillari bo'lishiga qaramasdan ularni asarga asos qilib olingan muammo – shahar muammosi (urbanistika) birlashtirib turadi. Shu ma'noda "Olmos kamar"ning jahon miqyosidagi urbanistik asarlar bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlari oz emas.

O'zbek adabiyotshunosligida bu urbanistika mavzusi maxsus tadqiq qilinmagan. Qomusiy lug'atlarda urbanizatsiya lotin tilidagi urbs (shahar), urbanizm lotincha urbanus (shaharga xos) so'zidan olinib, birinchidan, adabiyot va san'atda katta shaharlar bunyod bo'lishi bilan

aloqador inson taqdiri, tabiatidagi muammolarning badiiy aks ettirilishi va ikkinchidan, shaharda katta binolardan iborat gigant qurilishni yoqllovchi yo'nalishni bildirishi qayd qilingan.

Ularda aytilishicha, urbanistik badiiy yo'nalish XIX asrning ikkinchi yarmidan Uitmen ("O'tning barglari", 1855) hamda keyinroq V.Bryusov, E.Vexarn, A.Blok va boshqalar ijodida ko'zga tashlanadi.

Bu hol esa XIX asrning 50-yillarida urbanizatsiyaning kuchayishi bilan bog'liq, albatta. Badiiy adabiyot jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Urbanistik jarayon ham bundan mustasno emas.

Hayotda kechayotgan bu jarayon inson tafakkuri, qalbida o'zgarish yasamasligi mumkin emas. Bu esa, o'z navbatida badiiy adabiyot oldiga ham yangi muammolarni ko'ndalang qo'yishi tabiiy.

Urbanizatsiya kuchayishining o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. U insoniyat oldiga katta va murakkab muammolar, qiyinchiliklarni ham ko'ndalang qilib qo'ydi. Bu qiyinchilik va muammolarning ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va nihoyat, ma'naviy-axloqiy asoslari bor.

Jahon ko'lamida urbanizatsiyaning faollashuvi badiiy adabiyotning barcha janrlari, xususan, epik shakllarida bu jarayonning tasvirlanishiga sabab bo'ldi. Shahar hayoti, uning taraqqiyoti, shaharliklarning ma'naviy-axloqiy olami, shahar oilasi, bu oiladagi o'zaro munosabat, ziddiyatlar, shahar turmush tarzining inson ruhiyatiga, ma'naviyatiga ta'siri, qishloq va shaharning tafovut va ziddiyatlari, fan-texnika rivojining inson tabiatiga ta'siri badiiyat hududidan tobora ko'proq o'rin ola boshladi.

O'zbek adabiyotida u yoki bu darajada shahar mavzusini yoritgan, yoki qishloqdan shaharga ko'chib kelgach, sharoit taqozosiga ko'ra qahramonlarning ruhiyati, ma'naviyatidagi o'zgarishlarni badiiy aks ettirgan ayrim asarlar bor. M.Shayxzodaning "Toshkentnoma" (lirik poema, 1958), H.G'ulomning "Toshkent ruhi" (ballada, 1960), "Toshkentliklar" (romani, 1967), E.Vohidovning "Plakatda yozilgan doston" (1966), I.Rahimovning "Tinimsiz shahar" (roman, 1971), O.Yoqubovning "Larza" asarlari shular jumlasidandir. Lekin ular tom ma'nodagi urbanistik asarlar emas, chunki shahar hayoti tasvirlangan yoki shahar kishilari xarakteri yoritilgan har qanday asar urbanistik adabiyot namunasi bo'lavermaydi.

Shahar muammolariga bag'ishlangan asarlarda shaharga xos ziddiyatlarning qahramon hayotiga, ruhiyatiga ta'siri, shu jarayonda inson psixologiyasidagi o'zgarishlar, uning ma'naviy izlanishlari, kurashi, o'zligini anglashga intilishi kabilarning tasvirlanishini urbanistik asarlarga xos xususiyat desak, to'g'ri bo'ladi. Shu jihatdan "Olmos kamar" romani urbanistik asar talablariga to'la javob bera oladi. Roman badiiy matni bilangina emas, teran tagma'nosi bilan ham ahamiyatga loyiq. Unda adibning aytmoqchi bo'lgan, biroq ochiq aytoilmagan fikr, g'oyalari ham yashiringan.

Roman tagmatnida o'zbek xalqining milliy iftixori, haq-huquqi, ozodlik va mustaqillik haqidagi orzulari ham zuhur topgan. Asar sho'ro tazyiqi, milliy qatag'onlar davrida yaratilgan bo'lishiga qaramay, uning ayrim sahifalaridan bu masala va muammolarning aks-sadolarini ilg'ab olish qiyin emas.

“Olmos kamar” falsafiy-axloqiy konsepsiyasining asosiy qirralarini urbanistik asar nuqtai nazaridan tadqiq qilish, uni shu turdagi boshqa asarlar bilan qiyosiy o’rganish adabiyot ilmining hozirgi davrdagi dolzarb vazifalaridan deb hisoblaymiz. Pirimqul Qodirovning “Olmos kamar”, Y.Trifonovning “Almashish”, V.Rasputinning “Matyora bilan xayrlashuv”, I.Shamyakinning “Atlantlar va kariatidalar” asarlari bitiruv malakaviy ishi ob’yekti qilib olindi. Milliylik va qahramon ruhiy dunyosiga urbanizatsiyaning ta’siri tahlil qilinganda “Olmos kamar” A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” asariga qiyoslanadi.

To’g’ri, “Olmos kamar” nafaqat o’zbek adabiyotida, balki Pirimqul Qodirov ijodida ham badiiyati jihatidan o’rtamiyona asar. Roman urbanistik yo’nalishda bo’lgani uchun biz unga tadqiqotimizning asosiy ob’yekti sifatida murojaat qildik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari

Ishninf asosiy maqsadi sobiq Ittifoqda, yagona makon va zamonda yozilgan urbanistik asarlarni qiyosiy tadqiq qilib, ijodiy prinsip jihatidan ularning mushtarak va badiiy jihatidan o’ziga xos xususiyatlarini aniqlab, “Olmos kamar”ni va u orqali o’zbek urbanistik romanini Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi adabiyotlaridagi mavqeini belgilashdir. Bu maqsad quyidagi vazifalarni qamrab olishni taqozo etadi:

- urbanistik asarlarning yuzaga kelish omillari, manbalari, genetik ildizlarini aniqlash, ularning badiiy fazilatlarini tahlil etish;
- “Olmos kamar” birinchi o’zbek urbanistik romani ekanligini isbotlash;
- urbanistik asarning badiiy o’ziga xos qirralarini, uning shu nuqtai nazardan oilaviy, oilaviy-maishiy, sayohat romanlaridan farqini belgilash;

- shahar hayotiga bag'ishlangan asarlarning ko'pmuammoli bo'lishini tadqiq qilish va shu nuqtai nazardan badiiy serqatlamlik prinsipini ochish;

- shahar hayoti, uning shiddati, tezkorligi, dinamikasining inson ruhiyati, ma'naviyatiga ta'sirining badiiy talqinini o'rganish;

- urbanistik asarlar o'rganilganda turli milliy adabiyotlarga oid ijodiy prinsipdagi mushtaraklik va milliylikdagi o'ziga xoslikni yoritish;

- mualliflarning muammoga munosabatidagi pozitsiyaviy yaqinlikni va uslubdagi rang-baranglikni ko'rsatish;

- shahar hayoti (urbanizatsiya) ta'sirida ro'y berayotgan milliy urf-odatlardagi o'zgarishlarning badiiy tasvirini tahlil etish;

- urbanistik asarlarda davr ruhi va siyosatning badiiy aks etishini ko'rsatish.

Mazkur muammo bo'yicha 30-yillardayoq rus adabiyotshunosligida ayrim ilmiy izlanishlar olib borilgan (N.P.Ansiferov "Rus adabiyotida urbanizm muammolari" ("Проблемы урбанизма в русской художественной литературе") mavzusida dissertatsiya ishi yoqlagan.

Urbanizm kapitalistik jamiyatgagina xos, sotsialistik tuzumga esa yot deb e'lon qilingach, bu yo'nalishda uzoq vaqt tadqiqot olib borilmadi. 80-yillarda bu masala atrofida fikr yuritish jonlandi. 1984 yilda "Literaturnoe obozreniye" jurnali "Shahar – inson - adabiyot" mavzuiga bag'ishlangan munozaralarni boshlab bergach, bu muammoga qiziqish kuchaydi. Urbanistika muammolari nuqtai nazaridan badiiy asarlarga bag'ishlangan ayrim fikrlar, taqriz va maqolalar paydo bo'ldi. Lekin ularda (M.Qo'shjonov, L.Terakopyanni istisno qilganda) o'zbek adibining

asarini urbanistik, ya'ni shahar muammolariga bag'ishlangan roman sifatida emas, umuman, yangi yaratilgan asarlardan biri sifatida tahlil qilishgan, xolos.

Bu malakaviy bitiruv ishi nafaqat o'zbek, balki Markaziy Osiyo adabiyotshunosliklarida urbanistik asarlar qiyosiy planda tadqiq qilingan. Malakaviy bitiruv ishida birinchi marotaba "Olmos kamar" urbanistik roman sifatida atroflicha o'rganilganligidan tashqari, o'zbek, rus, belorus adabiyoti namunalari bilan qiyosiy planda tadqiq qilinganligi ishning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Ishning nazariy-metodologik asosini o'zbek va xorij olimlarining adabiyotshunoslikdagi tajriba va xulosalari tashkil etadi.

Biz ko'proq V.G.Belinskiy, M.M.Baxtin, V.M.Jirmunskiy, M.B.Xrapchenko, L.I.Timofeyev, I.G.Neupokoyeva, D.Dyurishin, L.Terakopyan, Izzat Sulton, M.Q.Qo'shjonov, L.Qayumov, H.Abdusamatov, S.Mirvaliyev, N.Vladimirova, S.M.Mamajonov, E.A.Karimov, O.Sh.Sharafuddinov, I.G'ofurov, P.M.Mirzahmedova, U.Nosirov, N.Boboyeva, Z.Boboyeva va boshqa adabiyotshunoslarining nazariy fikrlariga suyandik.

Bitiruv malakaviy ishiga analitik va qiyosiy-tipologik metod asos qilib olindi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati

Malakaviy bitiruv ishining asosiy natijalari va ilmiy-nazariy xulosalaridan badiiy adabiyotning yetakchi tamoyillari muammosini tadqiq qilishda, qiyosiy adabiyotshunoslikka oid ilmiy izlanishlar olib borishda, urbanistik asarlarning o'ziga xos jihatlarini, unga qo'yiladigan talablarini o'rganishda foydalanish mumkin. Malakaviy bitiruv ishi

materiallari hozirgi davr adabiyoti va adabiyot nazariyasi hamda o'zbek, rus, belorus, adabiyotini o'qitishda, o'quv qo'llanmalari, metodik tavsiyanomalar tuzishda, oliy o'quv yurtlarida maxsus kurslar va seminar mashg'ulotlarini tashkil etishda ham yordam beradi, deb umid qilamiz. Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. “Olmos kamar” o'zbek urbanistik romani

I.1. Pirimqul Qodirov asarlarining o`ziga xosligi

Pirimqul Qodirov – iste’dodli nosir, zukko adabiyotshunos olim, ajoyib tarjimon, u ayniqsa, nasrimiz rivojiga salmoqli hissa qo’shdi. P.Qodirov 1928 yil 25 oktyabrda Tojikistonning O’ratepa tumanidagi Kengqo’l qishlog’ida chorvador oilasida tug’ilgan. 1951 yilda Toshkent davlat universiteti (hozirgi O’zMU)ni bitirgan. Moskvadagi Jahon adabiyoti institutida aspirantura kursini o’tab, 1954 yilda “Abdulla Qahhorning urushdan so’nggi ijodi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. 1954-1963-yillarda sobiq Ittifoq Yozuvchilar uyushmasida o’zbek adabiyoti bo’yicha maslahatchi, 1963-1976-yillarda O’zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim bo’lib ishlagan. “O’ylar” (1971), “Dil va til” (1972), “Xalq tili va realistik proza” (1973) singari risolalar yozib, so’z san’atining til va badiiy mahoratga doir muhim muammolarini yoritishga munosib ulush qo’shgan.

P.Qodirov o’z ijodini 50-yillarning boshlarida talabalar va o’qituvchilar hayoti haqida ayrim hikoya va ocherklar yozishdan boshladi. Uning birinchi kitobi – “Studentlar” 1950 yilda nashr etildi. Keyinchalik adib “Besh yilliklar farzandi” (1951), “Olimamiz”, “Yayra institutga kirmoqchi” (1953), “Hikoyalar” (1953) kabi to’plamlarini chop ettirdi. Shunday qilib, P.Qodirov 50 yillarning birinchi yarmida ijodiy izlanish davrini bosib o’tdi. Shundan so’ng u nasrning eng qiyin va yirik janrlariga qo’l urib, qissachilik va romanchilikda o’z iste’dodini namoyon eta boshladi. P.Qodirov “Qadrim” (1959), “Erk” (1969), “Meros” (1974), “Najot” (1981) kabi qissalarning muallifidir. Bu qissalarda turli mavzular

aks ettirilgan. Inson qadr-qimmatini ulug`lash, insonparvarlik va adolatparvarlik, halollik va sof vijdonlilik, vatanparvarlik va xalqlar do'stiligi g`oyalari olg`a surilgan.

P.Qodirovning “Qadrim” qissasida zamonaviy mavzu yoritilgan. Unda o'zbek adabiyoti uchun yangi mavzu – gazchilar hayoti va mehnati Iskandar, Zulayho, Davron, Ashur kabi jonli obrazlar orqali badiiy gavdalantirilgan. Qahramonlar xarakterining murakkabligi va to'laligi jihatidan, xususan, Iskandar va Zulayho obrazlari ajralib turadi. Asarda yosh ishchi Iskandar dunyoqarashining shakllanishi, uning o'z qadr-qimmatini tushuna borishi, hayotdan o'rmini topib olishi jarayonini tasvirlashga e'tibor berilgan va bu masala muvaffaqiyatli ravishda yoritilgan. Qissada voqealarning bosh qahramon Iskandar tilidan, uning boshidan o'tkazgan kechinmalar sifatida hikoya qilinishi yozuvchiga obrazlarning ruhiyatini chuqur tahlil qilish va tasvirlash imkoniyatini bergan.

P.Qodirovning mashhur paxtakor Mamajon Dadajonovning porloq xotirasiga bag`ishlangan “Meros” qissasini o'zbek paxtakorlari mehnatini tasvirlash sohasidagi o'ziga xos yangilik deb aytish mumkin. Asarda paxtakorlar hayoti, ularning mashaqqatli mehnati bo'ylab-bezalmasdan ochiqcha, haqqoniy va to'laqonli aks ettirilgan. Paxtakorlar mehnati shunchaki o'ynab-kulib dalada yengil-yelpi ish qilish emas, balki mislsiz jismoniy qiyinchiliklarga chidash va ularni yengishdan iborat ekanligi mahorat bilan ochib berilgan. Qissadagi Yolqin, uning ukasi Tursun, onasi, shuningdek, Rustam, O'ktam, Jobir Toshbekov kabi obrazlar hayotiy va ta'sirchan bo'lib chiqqan.

Qissaning bosh qahramoni Yolqin Otajonov – fidoyi paxtakor. Bu yigit Mirzacho'lni o'zlashtirishda jonbozlik ko'rsatadi: o'zini aslo ayamay, kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay tinimsiz mehnat qiladi. U “Hech uxlamaysizmi?” degan so'roqqa: “Qayoqda! Terim boshlangandan beri boshim yostiq ko'rgan emas. Mashinada yurganda qush uyqusi qilib mizg'ib olaman”, – deb javob qaytaradi. Qissada tasvirlanishicha, yirik paxtachilik sovxozining direktori Yolqin Otajonov ne-ne qiyinchiliklarni yengib paxta xirmonini yuksaltiradi. Natijada, yulduzli qahramon sifatida yurtimizda keng taniladi. Biroq “oyoq ostidan chiqqan falokat, katta yo'lda sodir bo'lgan bema'ni bir tasodif” natijasida o'n gulidan bir guli ham ochilmasdanoq hayot bilan xayrlashadi. Yolqin Otajonovdan ukasi Tursunga paxtakor mashaqqatli, og'ir mehnat meros bo'lib qoladi. “Nachora bolam! Endi Yolqinjon uchun ham sen uzoq umr ko'r. Qahramonlik senga – akangdan meros... akang o'zini ayamadi. Endi seng o'zingni sal ayagin, ehtiyot bo'lg'in. Sen borsanu paxta bor. Odamdan azizi yo'q” – deydi bechora ona o'g'li Tursunga nasihat qilib. Onaning bu so'zlari qissaning leytmotivi sifatida sado beradi. Ha, odam paxta uchun emas, aksincha paxta odam uchun kerak. “Meros” qissasida ana shu haqda gap ro'y-rost, tabiiy va ta'sirli qilib aytilgan.

P.Qodirov ijodida roman janri salmoqli o'rin egallaydi. Adib o'zbek romanchiligining oltita yaxshi namunasini yaratgan. Uning 1958-yilda yozilgan birinchi romani “Uch ildiz” 50-yillar o'zbek nasrida muhim voqea bo'ldi. Ustoz adib Abdulla Qahhor bu romanga yuksak baho berib: “Ancha vaqtdan beri men o'zbek adabiyotida momaqalldiroq guldurosini eshitmay yurgan edim. Nazarimda, mana shu asar adabiyotimizga momaqalldiroqday gulduros solib, chaqmoqday yaltillab

kirib kelayapti”. “Uch ildiz” oliy maktab talabalari hayotiga bag`ishlab yozilgan birinchi o`zbek romanidir. Shaxsga sig`inish davri ta`sirida 50-yillarda oliy o`quv yurtlarida ildiz o`tgan tarafkashlik, mansabparastlik, soxtalik, dabdababozlik – “qizil so`zlik”, haqiqatdan ko`z yumib, rostgo`y olimlarni beobro` qilish singari illatlarni fosh etish, ilm fidoyilari bilan soxta “olim”lar o`rtasidagi ziddiyatni va buning asl mohiyatini ochib berish, adolatli, haqgo`y ziyolilarni hamda iste`dodli tolibi ilmlarni qo`llab-quvvatlash – “Uch ildiz” romanining asosiy yo`nalishini tashkil etadi.

Romanda shaxsga sig`inish va uning zararli oqibatlari o`sha davr imkoniyatlari darajasida ochilgan. Asar voqeasi bir universitet dargohida bo`lib o`tadi. Roman mazmuni asosida yotgan ziddiyat ana shu dargohda ishlayotgan yoki ta`lim olayotgan odamlarning o`zaro munosabatlarida, hatti-harakatlarida namoyon bo`luvchi mafkuraviy kurashdan iboratdir. Asar konflikti Akbarov, Toshev singari sof vijdonli, haqiqiy olimlar bilan nopok dekan Hakimov, uning hamtovog`i Eshonboboyev kabi qing`ir shaxslar, soxta olimlar o`rtasidagi kurash jarayonida gavdalanadi.

Romanda yakkaboshchilik bilan jamoatchilik, manmanlik bilan kamtarlik, qing`irlik bilan halollik, nopoklik bilan poklik, loqaydlik bilan faollik o`zaro bir-biriga qarama-qarshi qo`yib tasvirlangan. Shu orqali ezgulik va adolat ulug`langan, hayot haqiqati teran ochib berilgan. Asarda to`g`rilikning soxtalik ustidan, Akbarov, Toshev, Mahkam singari sof vijdonli ziyolilarning Hakimov, Eshonboboyev kabi nopok shaxslar ustidan g`alabasi yaqqol ifodalangan. Romanda Mahkam, Gavhar, Ochil singari faol talabalar hamda Akbarov, Toshev kabi halol olim-pedagoglarning faoliyati, o`ziga xos fe`l-atvori, axloq-odobi va orzu-

istaklari yorqin bo'yoqlarda tasvirlab berilgan. Shu bilan birga, Hakimov, Eshonboboyevlarning kirdikorlari ham teran ochilgan.

Romanda talabalar obrazi katta o'rin egallaydi. Asarning bosh qahramoni Mahkam mafkuraviy xatolarga yo'l qo'ygan degan bahonada urilgan, ishdan haydalgan tarixshunos olim Toshevaning qizi Gavharni sevib qoladi. Voqealar davomida Mahkamning ko'zi ochila boradi. U Hakimov, Eshonboboyev kabi adolatsiz domlalarning haqiqiy ma'naviy qiyofasini, ularning ilmni shaxsiy manfaatlariga xizmat qildiruvchi soxta olimlar ekanini anglab oladi. Xuddi shuningdek, mansabparast, nopok shaxslar tomonidan yomon otliqqa chiqarilgan Akbarov, Toshev, Umarov singari pedagoglarning chin insonlar, haqiqiy olimlar ekaniga qanoat hosil qiladi. Shu tariqa Mahkam kurashlar jarayonida o'sib, toblanib, yosh avlodning yorqin vakili sifatida shakllana boradi. Samimiylik, e'tiqodga sadoqat, ilm olishga qiziqish, vafodorlik va rostgo'ylik, qiyinchiliklardan qo'rqmaslik – Mahkam qiyofasida mujassam. Yozuvchi Mahkam obrazini yaratar ekan, bu yigit fe'l-atvorining shakllanish jarayonini oshirishda ruhiyat tahlilidan keng foydalangan.

“Uch ildiz” romanida chuqur mazmunli falsafiy xulosalar, hikmatli so'z va iboralar – serob. Romanning nomi ham teran mazmun tashiydi. Yozuvchi asarda talabalik davrida yoshlarda shakllanadigan ezguliklar va fazilatlari haqida bahs yuritar ekan, mustahkam bilim olishni, faol fuqarolik malakasini kasb etishni va sevgi-sadoqatda sobit turishni inson hayotining uch ildizi deb ataydi. Ana shu uch ildizi ham mustahkam bo'lgan kishigina hayotdan o'z o'rnini topib, el-yurt hurmatini qozonadi, - degan muhim fikr ustalik bilan professor Akbarov tilidan student-yoshlarga qarata aytiladi: “Studentlikda otadigan ildizlaringizdan...

birinchisi, albatta, bilim. Chunki sizlar bu yerda avvalo bilim deb yuribsizlar. Lekin... bilimli kishining yana bir zo'r ildizi bo'lishi kerak. Bilasizlar, butun iste'dodini xalq uchun sarflagan ulug' odamlar o'zlarini grajdanin deb ataganlar. Studentlikda voyaga yetadigan yana bir ildizning mana shu ma'nodagi grajdanlik bo'lishi kerak... Shu ildizlarning biri o'qishda o'ssa, biri jamiyat uchun qilingan ishda o'sadi. Ildizlar bir daraxtga kelib birlashganday, bular ham hayotlaringizda birlashib, bir-biriga kirishib ketadi. Shu ildizlaringiz qanchalik chuqur bo'lsa, shunchalik shoh yoya olasizlar, qanchalik mustahkam bo'lsa, yer yuzida shunchalik mahkam qad ko'tarib tura olasizlar".

"Uch ildiz" asarida Abdulla Qodiriy va Oybek romanlaridagi badiiy nafosat, Abdulla Qahhor ijodiga xos ixcham, lo'nda til hamda ruhiy tahlil san'ati ro'yirost namoyon bo'ladi. Bu hol P.Qodirovning ustozlar maktabidan saboq olganini, ularning an'analarini ijodiy davom ettirganligini ochiq ko'rsatadi. P.Qodirovning "Qora ko'zlar" (1965) romanida chorvadorlar hayoti, qishloq va unda yashayotgan odamlarga doir muammolar Ismat bobo, Xolbek, Hulkar kabi obrazlar faoliyati vositasida yoritilgan. 1977-yilda yozilgan "Olmos kamar" romanida esa katta shaharlarni yangi zamon talablariga moslab qayta qurish va obodonlashtirish jarayonida yuzaga kelgan murakkabliklarni bartaraf etish, qadimiy ezgu urf-odatlarini, iqlim sharoitini saqlab qolish bilan bog'liq muammolar o'zining badiiy ifodasini topgan. Muhimi, shu muammolarni hal qilish asnosida asar qahramonlariga xos ruhiyat iqlimlari tadqiq etilgan.

Iste'dodli yozuvchi Pirimqul Qodirov "Insof" pyesasi va "Sening izlaring" kinossenariysining muallifidir. P.Qodirovning tarjima amaliyoti

rivojiga qo'shgan ulushi ham e'tiborlidir. Adib Lev Tolstoyning "Kazaklar", K.Fedinning "Ilk sevinchlar", tojik yozuvchisi P.Tolisning "Saraton", turkman adibi Xidir Deryayevning "Qismat" va boshqa bir qancha nasriy asarlarni o'zbek tiliga o'g'irgan. Qisqasi, P.Qodirov o'zbek adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. U o'zbek nasrining, xususan, romanchiligining katta ustalaridan biridir. Uning asarlari kitobxonlarni, ayniqsa, yosh avlodni ezgulik ruhida tarbiyalashga va ularga estetik zavq berishga bevosita xizmat qiladi.

1.2. "Olmos kamar" o'zbek urbanistik romani sifatida

Bu reja "Olmos kamar" – o'zbek urbanistik romani sifatida deb nomlangan. Urbanizatsiya kundan-kunga rivojlanib borayotgan davrda har qanday shahar uchun ekologiya muammolarini to'g'ri hal qilish muhim vazifadir. Toshkent ham bundan istisno emas. Shuning uchun ham har qanday urbanistik asarda bo'ladiganidek "Olmos kamar"da ham ekologiya muammolariga keng o'rin ajratilgan. Lekin atrof-muhitni muhofaza qilish romanda asosiy mavzuni to'laroq yoritish uchun xizmat qiladigan qirralardan biridir. "Olmos kamar romanida" yozuvchi shaharni qayta qurish, uy-joy, ekologiya, oilaviy-maishiy (oilalar, er-xotin, ota-onalar va bolalar), avlodlar vorisiyligi, shahar ziyolilari, rahbarlar va xodimlar, milliylik va kosmopolitizm, o'z ona yurti uchun avlodlar oldida javobgarlik shaharlarning yiriklashish jarayoni, sharoitlar an'analar, texnika taraqqiyoti va boshqa ko'pgina jamiyatga, ayniqsa, shahar hayotiga xos bo'lgan muammolarning inson hayotiga, ruhiyatiga ta'sirini badiiy aks ettirgan. Ya'ni, asar markazida urbanizatsiyaning inson qalbi, tafakkuri, xarakteriga ta'sirini badiiy ko'rsatish yotadi.

Asar o'zagi urbanizatsiya ta'siridagi inson deb tasavvur qilsak, "Olmos kamar"dagi barcha muammo va masalalar xuddi olmos qirralaridek adibga uni har tomonlama yoritish uchun xizmat qiladi. Roman turg'unlik davriga xos holat va xususiyatlarni ham o'zida badiiy aks ettirgan. P.Qodirov urbanizatsiya ta'siridagi mana shu insonni, uning orzusini, armonini, kurashini, dardini, sevinchlari, alamlarini, tashvish va ishonchlarini badiiy tasvirlashga alohida e'tibor beradi hamda bularning barchasini ifodalashda milliylik tuyg'usi, milliy urf-odatlarining juda chuqur bilimdoni ekanini namoyish etadi. Bu yugur-yugurlar, tashvishlarni yozuvchi haddan tashqari ko'paytirib yuborgandek taasurol paydo bo'ladi. Lekin chuqurroq o'ylab qarasangiz, ular, xuddi shu urbanistik asarga xos ekaniga ishonch hosil qilasiz. Boshqa biror asarga bu qadar yuk chindan ko'plik qilgan bo'lishi mumkin edi. Biroq, "Olmos kamar"da u urbanistik asarning belgilaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Urbanistik asarning o'z mavzu, muammolari, mezon va qoidalari mavjud. Ana shu talablardan biri demografik o'sish va sanoatning rivoji ta'sirida shahar hududining jadal kengashi hamda shu muammolar bilan aloqadorlikdagi inson tabiatida ro'y berayotgan o'zgarishning tasvirlanishidir. Buni ko'rsatish uchun, inson hayotining turli qirralarini yoritishda P.Qodirov realist yozuvchi sifatida bironta qiyinchilikni tasvirlashdan qochmaydi va roman sahifalarida ularni doimo kitobxonlarga eslatib boradi. Ehtimol, romandagi ayrim lavhalar ocherkka o'xshab ketgandir. Ammo asardagi urbanistik xususiyat mohiyati badiiylikning talabidan qat'iy nazar, ba'zan, xuddi shu usulni ham talab qiladi. Bu esa "Olmos kamar" romanining o'zbek adabiyotidagi urbanistik yo'nalishdagi dastlabki asar ekanini yana bir bor dalillaydi. Pirimqul

Qodirov romaniga falsafiylik ham publitistik ham, “hozirgi zamon eposi”ga epiklik ham xosdir.

Roman markazida Toshkent shahrini qaytadan bunyod etish jarayonida faol ishtirok etgan, O'zbekistonning azim poytaxtini obod qilish uchun kurashgan me'morlar, shuningdek turli kasb egalari hamda bu go'shada istiqomat qiluvchi turli yosh va toifadagi kishilarning badiiy qiyofasi turadi.

“Olmos kamar” shahar muammolari va kishilari qiyofasi badiiy yoritilgan urbanistik roman bo'lib, unda obrazlar tizimi ko'psonli va rang-barangdir. Shuningdek, asarning obrazlar tizimida odamlar bilan birga Toshkentdek ulkan shahar obrazi ham yaratilgan. “Olmos kamar” 1977 yilda yozildi.

Pirimqul Qodirov romanning qayta ishlanib, 1983 yilda nashr qilingan nusxasiga yozgan “So'zboshi”sida “Toshkent mening asosiy qahramonim bo'ldi”, deb aytgan. “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasining muxbiri bilan bo'lgan suhbatda (1984) yozuvchi romanning badiiy maqsadiga kengroq to'xtalib: “... shahar hayotiga bag'ishlangan romanlar... unchalik ko'p emas. Lekin bunday asarga ehtiyoj o'sib bormoqda... Toshkentliklar hayotida qiziqarli va ibratli tomonlar ko'p. Roman ana shu kuzatishlarga asoslanib yozilgan”.

Y.Trifonovning “Almashish” (1969), I.Shamyakinning “Atlantlar va kariatidalar” (1975), V.Rasputinning “Matyora bilan xayrlashuv” (1976) romanlari bilan “Olmos kamar”ning mushtarak xususiyatlari bo'lgani holda eng asosiysi, o'ziga xos fazilatlari ham mavjudki, biz aynan ana shu o'ziga xosliklarni ko'rsatishga harakat qildik. O'zbek adibining 70-yillar sobiq Ittifoq adabiyotida birinchilar qatori shahar

hayotidek dolzarb mavzuni yoritishga kirishgani adabiyotimizda kechgan sifat o'zgarishlar, badiiy tafakkur hududining kengayishi bilan bog'liq.

I.3. “Olmos kamar”da shahar hayoti va uning inson ruhiyatiga ta'siri

“Olmos kamar” P.Qodirovning shahar muammolari yoritilgan birinchi asari emas. Bu romandan oldin yozuvchi “Erk” qissasini yaratgan. Asarda metro qurilishi bilan aloqador qahramolar hayoti tasvirlangan edi. Qissada, shuningdek, shahar hayotining muayyan qirralari namoyon bo'ldi. “Erk” qissasi bilan “Olmos kamar” romanining uzviy bog'liqligiga adabiyotshunos Abdulla Matyoqubov ham o'z vaqtida e'tibor bergan edi. Uning yozishicha: “... bu qissa yozuvchining “Olmos kamar”ni yozishdan avvalgi razvedkasiga o'xshaydi”.

“Olmos kamar” shahar hayoti muammolari va ularning inson ruhiyati, xarakteri, dunyoqarashi o'zgarishiga ko'rsatgan ta'sirini badiiy tahlil etishga bag'ishlangan roman dedik. Xo'sh, bu nimalarda ko'rinadi? Asarda shahar tasviri obraz darajasiga ko'tarilgan deyish mumkin. U ulkan bunyodkorlik, o'ziga xos muammolar, yangilik va an'ana, odamlar va tabiatdan iborat. Shahar obrazi asar syujeti va kompozitsiyasida o'ziga xos o'ringa ega. Shuning uchun ham shahar manzaralarining tasviriga muallif alohida e'tibor beradi. “Olmos kamar”da urbanistik asarlarga qo'yiladigan asosiy talablar – shaharlar o'sishi, qiyofasi o'zgarishi, shaharliklar hayotining jadallashishi, texnikaning shahar hayotiga faol kirib borishi fonida shu jarayonlarning inson ruhiyatiga, ongi, qalbi, qarashlariga ta'siri badiiy yoritilgan.

U.Normatov “Olmos kamar”da mashina obraz darajasiga ko’tarilganini ta’kidlagan edi. P.Qodirov yozishicha, Aborning asablari charchagan paytda “haydab borayotgan mashinasi ham uning o’zidek asabiy harakatlar qiladi”. Faqat shahar qiyofasi va manzaralari tasvirinigina urbanistik roman xususiyatlari sifatida tushunish biryoqlamalik bo’lur edi. Bizningcha, adib shaharni tarixiy va zamonaviy, ijtimoiy va iqtisodiy, ekologik, madaniy-maishiy, boringki, oilaviy dardu tashvishlar – bor muammolari bilan bir butun holda qamrab oladi va uning markaziga shu kunning kishilarini qo’yadi. Chunonchi, shahardagi tabiat muvozanatini saqlashdan tortib, to shahar oilasigacha – bular bari shaharga xos muammolar. Chunki bu – shahar ekologiyasi, bu – shaharda yashaydigan inson, bu – shu insonga xos g`amu tashvishlar va h.k.

Shahar ham odamlarga o’xshab asar sahifalaridan kun kechiradi va obrazlar tizimining ajralmas qismi bo’lib qoladi. Asar bilan tanishgan o’quvchida muallif atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni asrash, shaharni ko’kalamzorlashtirish masalasini birinchi va asosiy muammo deb hisoblaydi, shuning uchun “Olmos kamar” ekologik roman degan tushuncha paydo bo’lishi ham mumkin.

Professor O.Sharafutdinovning yozishicha, P.Qodirov “butun ijodi davomida ona tabiat kuychisi sifatida ham ko’rinadi... Pirimqul tabiatni sevishgina emas, uni saqlab qolish uchun kurash yozuvchining muqaddas burchi ham ekanini tushundi... Pirimqul so’nggi romanlaridan biri “Olmos kamar”ni ham shu masalaga bag`ishladi”.

“Olmos kamar”ning ba’zi bir sahna va epizodlarida (ayniqsa, ikkinchi nashrida) konflikt va to’qnashuvlar yumshatilganini, ba’zi bir o’rinlarda esa, yo’qqa chiqarilganini sezamiz. Romanda Abror jamiyat

bilan to'qnashuvga kirishadi va oqibatda, g'olib ham chiqadi. bunga Moskvadan hakamlikka taklif etilgan taniqli me'mor – Pavel Danilovich Katinov – sababchi bo'ladi. Shu o'rinda badiiy konfliktning hal etilishida yozuvchi trafaret yo'ldan chiqolmaganini ham e'tirof etish lozim. Go'yo, ba'zi qiyinchiligu, muammolarni Moskvadan kelgan odam hal qilib bermasa, bu yerdagilarning aqli yetmaydigandek. Bu masalaning bir tomoni, ikkinchi tomondan esa, Moskov chindan ham xo'jayinlikni, hakamlikni o'z qo'liga olgan bo'lib, asardagi bu holat hayot haqiqatining ifodasi ham edi.

Asar qahramonining hamma vaqt o'z rahbari va boshqalar bilan bahslashib yurishi, ayniqsa, 70-80-yillarda bo'lganidek, asosiy personajning ijobiy tomonini ko'rsatish, uni ideallashtirishdan tashqari barcha badiiyat namunalari uchun asosiy mezon bo'lgan talablardan biri hamma konfliktlarni rus millatiga mansub kishilar oqilona hal qilishi turg'unlik davri adabiyotiga xos bo'lgan belgilardandir. Afsuski, “Olmos kamar” ham bu qusurlardan xoli emas. “Olmos kamar”ning falsafiy-axloqiy konsepsiyasini ifoda etuvchi qahramon – Abror – bilimli va talantli me'mor. U institutni bitirgach, endigina shakllanayotgan landshaft arxitekturasi bo'yicha ilmiy ish yozib, uni Moskvada nomzodlik dissertatsiyasi sifatida himoya qiladi. Abror bu yangi fan sohasining O'zbekistondagi targ'ibotchilaridan biri bo'lib qoladi va o'z loyihalarida landshaft arxitekturasi g'oyalarini amalga oshirishga harakat qiladi.

“Olmos kamar”da oilaviy-maishiy yo'nalish tasviri ham kuchli. Shuning uchun yozuvchi turmushning qiyinchiliklarini, baxtli onlarini, fojiaiy qirralarini, umuman, hayotning barcha pastu balandi va ikir-chikirlarini izchil tasvirlab boradi. Asarning bu tomonlarini tanqidchilik

alohida ta'kidlagani bejiz emas. "Yozuvchi shahar hayoti bilan chambarchas bog'langan va uning organik tomonlariga aylanib ketgan barcha yugur-yugurlar, tashvishlarini ularning eng mayda turlarigacha batafsil tasvirlashdan o'zini olib qochmaydi. Atay bir ijodiy maqsadni ko'zlab turib shunday qiladi. U tashvish degan fenomenni uning bor zamonaviy bo'ybasti va o'ziga xos xarakterli tomonlari bilan ko'rsatadi. Tabiatning va tarixiy taraqqiyotning gultoji bo'lmish inson o'zi yaratgan shu tashvishlar dunyosi ichida o'zini yaxshi tutadi?"

"Olmos kamar"da uch avlodning turli toifadagi guruhlar (ziyolilar, yoshlar, nafaqaxo'rlar) vakillari qiyofasi aks etadi, ularning qarashlari, e'tiqod va burchlari, oila, jamiyat, davlat oldidagi mas'uliyati badiiy gavdalantiriladi. Qayd qilib o'tish joizki, "Tashvish fenomeni" Toshkentga ham, ulkan shaharda yashayotgan barcha kishilarga ham taalluqlidir. Asarning ma'lum bir o'rinlarida bu tashvishlar, yugurishlar qilingan va qilinmagan ishlar qahramonlarni ba'zan bosib qo'yadi. Ayniqsa, ko'p mashaqqatlar, tashvish va ishlar romanning bosh qahramoni zimmasiga tushadi. "Abror shu topda o'zidan ham norozi bo'ldi. Bir kunda ham ishga bordi, ham shuncha yugurib bolalariga putyovka topdi, ham ularni yuz kilometr joyga olib keldi. Yana bu yetmaganday, kechgacha shaharga qaytib, kasalxonadagi qaynonasini ko'rishi, so'ng oqshom uyda bugun chala qolgan loyiha ishlarini qilishga ulgurishi kerak".

Yugur-yugurlardan mashina tormozining nayi uzildi, motori haddan tashqari zo'riqib, qizib ketdi. Temir mashina chidamagan bu mashaqqat va qiyinchiliklarga faqat odam bardosh beradi.

Bitiruv malakaviy ishida “Olmos kamar”dagi otalar va bolalar, avlodlar vorisiyligi (Abrorning ota-onasiga, o’g’li va qiziga), qarindosh-urug’lik (bosh qahramonning qaynonasiga, qaynisiga, ukasiga munosabati), shahar oilasi (A’zam ota – Hanifa xola, Abror – Vazira, Alibek - Nasiba), shahardagi yoshlar, ishdagi bahslar (Sayfulla Rahmonov - Abror) va boshqa turli ijtimoiy-maishiy muammolarni urbanistik asar talablaridan kelib chiqib tasvirlashini ta’kidlanib, urbanistik jarayonning inson ongi, ruhiyati, qarashlariga ta’siri qanday badiiy aks ettirilganligi roman qahramonlari – Abror, Vazira, A’zam ota, Hanifa xola, Zumrad Sodiqovna Badalova, Alibek, Sayfulla Rahmonov va boshqalar misolida batafsil tahlil qilingan. “Olmos kamar” haqida yuqorida bildirilgan fikrlar asosida shunday xulosaga kelish mumkin:

a) shahar muammolariga bag’ishlangan bu romanda urbanizatsiyaning inson ruhiyatiga, hayotiga, taqdiriga, xarakteriga turli tuman ko’rinishdagi ham ijobiy, ham salbiy ta’siri; insonning fan-texnika taraqqiyoti jarayonida o’zligini anglashga intilishi; vatan timsoli bo’lmish o’zi tug’ilgan, yashayotgan joyning gullab-yashnashi; ma’naviy, milliy qadriyatlarni saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazish kabi turli masalalar badiiy yoritiladi. Bu masalalar, asosan, shaharni qayta qurish bilan uzviy bog’liq holda ochila boradi;

b) “Olmos kamar” Pirimqul Qodirov ijodidagina emas, umuman o’zbek adabiyotida ham mazmun va shakl nuqtai nazaridan o’ziga xos yangiliklarga ega asardir;

v) asarda shahar obrazi asosiy qahramonlardan biri darajasiga ko’tarilgan. Shaharni ko’rkamlashtirish maqsadi zamiridagi personajlarning harakatlari asosida urbanizatsiyaning ular qiyofasiga, fe’l-

atrofiga, tabiatiga ta'sirining badiiy tasvirlari yotadi. Shu asosda shaharning jonli qiyofasi ham gavdalanadi;

g) romanning badiiyati adibning boshqa asarlaridan farq qiladi. Buning sababi "Olmos kamar"ning shahar muammolari asosiga qurilganligi, ya'ni urbanistik asarligi bilan bog'liq. Shu tufayli ham u kitobxonda ba'zan birmuncha "quruq til" bilan, publisistik uslub bilan yozilganidek taassurot qoldiradi. Aslida bu yozuvchi ongli ravishda tanlangan yo'l bo'lib, u asarning o'ziga xos badiiy fazilatlariga putur yetkazmaydi;

d) "Olmos kamar" adabiyotimizda urbanistik yo'nalishdagi birinchi yirik epik asar bo'lgani uchun romanda yuqorida qayd qilingan va unga o'xshash (personajlar portretlarning to'liq berilmasligi, qahramonlarga shahar nusxining kuchli ta'siri, ba'zi epizodlardagi ortiqcha tafsilotlar...) kamchiliklar borligini ham nazardan qochirmaslik kerak.

II BOB. MDH mamlakatlarida urbanistik asarlar

II.1. Urbanistik asarlarda fan-texnika va zamonaviy shahar taraqqiyotining berilishi

Malakaviy bitiruv ishining ikkinchi bobi “MDH (sobiq Ittifoq) adabiyotlarida urbanistik asarlar deb nomlangan. Unda o‘zbek adibining asari urbanistik yo‘nalishdagi rus, belorus adabiyotlari namunalari hamda “O‘tkan kunlar” romani bilan qiyosiy planda tadqiq qilingan. Badiiy asarning ijod mahsuli sifatidagi o‘ziga xosligi, qimmat, adabiy jarayondagi o‘rni kabilarni chuqurroq anglash uchun uni boshqa hudud asarlari bilan qiyoslash muhim ahamiyatga ega. Bu haqda mushtaraklik ta’limotining asoschisi D.Dyurishin shunday yozadi: “Muqoyasa qilmasdan turib, hatto bir milliy adabiyot doirasida ham badiiy jarayon dinamikasini tushunish, merosiylik, an’analarning almashuvi, badiiy qadriyatlarining ichiga kirish dushvor”.

Jahon xalqlari madaniyati, san’ati, adabiyoti qadim-qadimdan bir-biriga ta’sir qilib, bir-birini boyitiib, taraqqiy ettirib kelgan. Bu haqda N.I.Konrad yozganiday: “Insoniyat o‘zining barcha ixtilof – to‘qnashuvlariga qaramay madaniyat sohasida hamisha bir-biri bilan aloqada bo‘lgan va bunday aloqani chetlab o‘ta olmagan”. Bu fikr-mulohazalar biz o‘rganayotgan “Olmos kamar” romanini adabiy ta’sir, adabiy an’ana muammolari doirasida ko‘rib chiqish uchun yo‘nalish beradi. “Olmos kamar”ni mazkur masalalar bo‘yicha o‘rganish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. O‘bek adabiyotidagi badiiy – estetik an’analarning biz tahlilga tortgan roman qurilmasi, syujeti, qahramonlari, badiiyatiga ta’siri.

2. Sobiq Ittifoqning ayrim adabiyotlaridagi (rus, belorus) urbanistik asarlar va “Olmos kamar” romani orasidagi yaqinlik, o’xshashlik, o’ziga xoslik va bularning omil, manbalari.

Bu muammolarni tadqiq etish “Olmos kamar”ning badiiy matn sifatida yuzaga kelish omillarini, uning badiiy-estetik xususiyatlarini oydinlashtirishga yordam beradi. P.Qodirov o’zbek shahri, uning qurilishi, odamlari, urf-odatlar haqida badiiy asar yozishga kirishar ekan, aynan roman shaklini tanlab olishi bejiz emas. Zotan, bu badiiy shakl muallif o’z oldiga qo’ygan katta maqsadni amalga oshirishga mos keladi. “O’tkan kunlar”ning mukammal badiiy olami, puxta, pishiq qurilmasi, voqealar tizimi, milliy xarakterlari va tili adiblarimiz uchun mahorat maktabi bo’lib keldi.

Bu hodisa haqida adabiyotshunoslikda ko’p fikrlar bildirilgan. Deyarli barcha yozuvchilarimiz “O’tkan kunlar”ning o’z ijodiyotlari tadrijiga ko’rsatgan hayotbaxsh ta’sirini e’tirof etadilar. Ammo hanuzgacha mana shu ta’sir mexanizmini chuqurroq tadqiq etish bo’yicha sezilarli ishlar qilingan, deb bo’lmaydi. Xolbuki, bunday xarakterdagi ishlar o’zbek romanchiligining taraqqiyot yo’li, oqimlari, o’ziga xos tamoyillari, qonuniyatlarini yoritishda muhim qadam bo’lar edi. A.Qodiriyning “O’tkan kunlar”i asrimizning 20-yillarida yozilgan, mavzui “moziydan, yaqin o’tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo’lgan keyingi “xon zamonlaridan” olingan. “Olmos kamar”i 70-yillarda zamonaviy mavzuda yozilib, unda adib o’zi mansub davr muammolarini yoritgan. Bu haqda adib shunday degan: “Toshkentda yashaydigan zamonaviy bir oila orqali shahar hayotini ko’rsatish niyati 1963 yildan beri xayolimda aylanib yurar edi. Bu reja biz mansub bo’lgan

avlodning kamol topishiga bag'ishlangan, shuning uchun o'zinga juda muhim tuyulardi".

II.2. "Olmos kamar" va "O'tkan kunlar" asarlarida milliylikning o'ziga xosligi

"O'tkan kunlar"da o'n to'qqizinchi asrning 40-50-yillaridagi tarixiy hayot, shu davr odamlarining muomala-munosabatlari, davlat tuzumi, oila, nikoh masalalari o'zining badiiy ifodasini topgan. "Olmos kamar"da esa yigirmanchi asrning 60-70-yillaridagi shahar hayoti, fan-texnika asrida yashayotgan insonning oilada va xizmat joyidagi turmushi, ruhiyati, murakkablashayotgan shaxsiy hamda ijtimoiy munosabatlar badiiy tadqiq etiladi. "O'tkan kunlar" va "Olmos kamar"da tasvirlangan voqealardagi vaqt masofasidagi farq qariyb 120 yilni tashkil etadi. Bu ikki asar yaratilishi orasidagi taqovut ham ellik yildan ziyodroq muddatni o'z ichiga olgan. Adiblarning iste'dod darajasi, ikki romanning badiiyati, mualliflarning hayotga, insonga, qahramonga bo'lgan qarash, munosabatlarida ham, tabiiyki, muayyan farqlar mavjud.

Ammo mana shu tafovut va farqlarga qaramay, adabiy-badiiy jarayonning bir-biridan ancha uzoqda bo'lgan ikki bosqichida yaratilgan romanlar ("O'tkan kunlar" va "Olmos kamar") orasida tarixiy-genetik, badiiy-poetik jihatdan yaqinlik hamda bog'lanishlar bor. "Olmos kamar" asosan urbanistik yo'nalishdagi asar bo'lsa, "O'tkan kunlar" esa mutlaqo boshqa yo'nalishda. Ular o'rtasida qanday yaqinlik bo'lishi mumkin degan savolning tug'ilishi tabiiy. Biz o'zbek oilasiga, uning ruhiy dunyosiga urbanizatsiyaning qay darajada ta'sir qilganini aniqlash uchun

“Olmos kamar” qahramonlarini urbanizatsiyadan butunlay xoli bo’lgan “O’tkan kunlar”ning personajlari bilan qiyosladik.

A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” epik asarida tanazzulga uchrayotgan, taraqqiyotga to’siq bo’la boshlagan feodal davlat qurilmasining ahvoli, uni yangilash, isloh qilish harakatida bo’lgan taraqqiyparvar insonlarning faoliyati, kurashi, orzu-intilishlari o’zining badiiy ifodasini topgan. “Olmos kamar”da muallif o’zi qayd etganday, zamonaviy shaharning taraqqiyoti, rivojlanayotgan ma’muriy-madaniy hududning inson ruhiyati, ongi, kechinmalari, turish-turmushiga ta’siri kabilarni aks ettiradi. Agar A.Qodiriy romanida hokimiyat qurilmasi inqirozi markaziy o’rinlardan birida turgan bo’lsa, “Olmos kamar”da tanazzul emas, taraqqiyot masalasi qo’yilganday ko’rinadi. To’g’ri, asar yozilganidan so’ng bu jamiyat, bu tuzum, bu hokimiyat ham tarix ko’rmagan jarga quladi, tanazzulga yuz tutdi. Lekin, hozir gap bu haqda emas. Asosiy gap, “Olmos kamar”da Toshkent shahrining qayta bunyod etilishi masalasi qo’yilganidadir. P.Qodirov asariga chuqurroq razm solinsa, sho’ro tuzumi davrida ruslashtirish siyosati, urbanizatsiyaning jadallashuvi oqibatida milliy urf-odatlar, milliy ruhiyat, o’zbekona odatlarga asta-sekin darz ketib, ular tobora halokat yoqasiga yaqinlashayotganini payqasa bo’ladi. Ammo bu tanazzul roman matnida ochiq emas, qator lavhalarda yashirin-ramziy yo’sinda o’z ifodasini topgan.

“Olmos kamar” muallifi, umuman olganda, Sharq epik adabiyoti, xususan, A.Qodiriy badiiy merosidagi oila tasviri an’analarini o’ziga xos yo’sinda ijodiy-badiiy o’zlashtirib, badiiy rivojlantirishga harakat qiladi. Biroq, ayni vaqtda “Olmos kamar”dagi o’zbek oilasi “O’tkan kunlar”da

tasvirlangan, taxminan, 125 yil avvalgi oila emas, albatta. Yangi davr, yangi zamon, ayniqsa, urbanizatsiya “Olmos kamar”dagi oilaga kuchli ta’sirini o’tkazgan. Shunday qilib, P.Qodirov o’zi tasvirlagan oiladagi – ham an’ana sifatida davom etib kelayotgan ko’p asrlik urf-odatlarini, ham yangi zamon, urbanizatsiya ta’sirida tug’ilgan yangicha oilaviy munosabatlarni tasvirladi. “O’tkan kunlar”dagi Yusufbek hoji va “Olmos kamar”dagi A’zam ota xonadonlari orasida muayyan yaqinlik, mushtaraklik alomatlari bordek. Bu mushtaraklik birinchi navbatda o’zbek xalqining milliy psixologiyasi, turmush tarzi, muomala-munosabatlaridagi umumiylikdan kelib chiqqan. Har ikki romandagi oila boshlig’i – ota obrazi badiiy qurilmasidagi yaqinlik, ayniqsa, e’tiborga loyiq.

Yusufbek hoji va A’zam ota xarakterlarida davr, ijtimoiy mavqe, tafakkur darajasi bilan belgilanadigan jiddiy farq – tafovutlar ham, milliy, islomiy zaminda kelib chiqqan bog’lanishlar ham mavjud. Yusufbek hoji feodal-patriarxal jamiyatning yuqori mavqelaridan birida turuvchi, Toshkent hokimi saroyida muvoshir (maslahatchi) lavozimidagi shaxs. Uning fikri, obro’-e’tibori bilan hokimgina emas, xon, mingboshi kabilar ham hisoblashishga majbur. A’zam ota esa bunday mavqe, martabaga ega emas. U o’z hunari, mehnati bilan ro’zg’or tebratib keladi. Yusufbek hojiga qiyosan qaraganda kichkina odam bo’lib ko’rinishi mumkin. Ammo bunday tashqi chog’ishtirish noto’g’ri xulosalar chiqarishga asos bo’lmasligi kerak.

Yusufbek hoji mulohazakor, donishmand shaxs. Har bir ishini o’ylab, xalq maqoli bilan aytganda “Yetti o’lchab bir kes”ib amalga oshiradi. Bosiq, salmoqlanib so’zlaydi, har bir aytgan gapi insoniyat

to'plagan tajriba, bilim, malaka zahirasiga asoslangan. A'zam ota tabiatida, mulohazalarida o'zbekona andisha, milliy psixologiyaning xos xususiyati jo etilgan. A'zam otaning o'g'liga xitobida Yusufbek hojiga xos bo'lgan bosiqlik, salobat, mulohazakor aks-sado berib turganday bo'ladi. Albatta, bu kabi o'xshashliklar A'zam ota Yusufbek hoji obrazining beo'xshov takrori, adib taqlid yo'li bilan badiiy timsol yaratgan, degan qarashga asos bermaydi. Chunki A'zam ota o'ziga xos xarakterga ega bo'lgan, o'zi yashayotgan muhitga davrning asosiy belgi nishonalarini shaxsida mujassamlashtirgan obraz.

“O'tkan kunlar”dagi O'zbek oyim va “Olmos kamar”dagi Hanifa xola obrazlari qurilmalarida ham ma'lum bir o'xshash, yondosh tomonlar ko'rinadi. Shunday qilib, ikki roman (“O'tkan kunlar” va “Olmos kamar”) o'rtasidagi oilaviy, milliy masalalarni, xarakterlarni yaratishdagi ijobiy prinsiplararo mushtaraklik badiiy adabiyotning insonni tasvirlashdagi tipologik, umumadabiy prinsiplaridan, shuningdek, janr (roman)ning shakliy imkoniyatlari masalasidagi adabiy ta'sirdan va nihoyat, xalq, milliy psixologiya, turmush tarzidagi umumiy alomatlardan kelib chiqqanini ta'kidlash lozim.

Bu o'rinda adabiy an'ana va vorisiylik masalasiga biroz to'xtalib o'tish kerak. Chunki nafaqat o'zbek, butun Markaziy Osiyo romani o'zining keyingi oltmish yillik taraqqiyoti yo'lida G.E.Bertels iborasi bilan aytganda, “Oltinchi romanchilik maktabi” tajribasi, an'alarini davom ettirib, rivojlantirib keldi. A.Qodiriy va P.Qodirov romanlarini bir-biriga bog'lab turuvchi alomatlar – ijodiy metod (realizm), janr (roman), til (o'zbek), milliy psixologiya (yozuvchining ham, tasvirlanayotgan xalqning ham ruhiyati nazarda tutiladi), hudud (kengroq olganda

Turkiston, O'zbekiston, tor ma'noda o'zbek shahri), syujet (voqea tizimi), kompozitsiyasi (badiiy qurilma), xarakterlarga munosabatdagi ijodiy prinsiplar mushtrakligini yuzaga keltirishda muhim rol o'ynagan.

“O'tkan kunlar” badiiy tajribasi yigirmanchi asr o'zbek adabiy-badiiy jarayonining barcha bosqichlari, shu jumladan, 60-80-yillardagi o'zbek romanchiligining taraqqiyotiga ko'mak bergani, romanni adabiy shakl tarzida yuksaltirgani, uning yangi qirralarini ochishga ko'maklashgani A.Qodiriy va P.Qodirov asarlarining o'zaro qiyosi orqali yaqqol ko'rinib turibdi.

II.3. Urbanistik asarlar va ularning “Olmos kamar” bilan qiyosiy tahlili

Biz yuqorida “Olmos kamar”ning milliy xususiyatlarida kuchli ta'siri mavjud bo'lgan milliy zaminni ko'rsatishga harakat qildik. Endi urbanistik fazilatlar mavjudligi nuqtai nazaridan “Olmos kamar”da ham MDHdagi ayrim adiblar ijodida ko'zga tashlanuvchi mushtaraklik va o'ziga xoslikni yoritishga harakat qilamiz. V.Rasputinning “Matyora bilan xayrlashuv”. Y.Trifonovning “Almashish”, I.Shamyakinning “Atlantlar va kariatidalar”, P.Qodirovning “Olmos kamar” kabi asarlari turli millatga mansub, iste'dod darajasi, badiiy tafakkuri bir-biridan farqlanadigan va o'ziga xos uslub hamda dunyoqarashga ega bo'lgan ijodkorlar tomonidan yozilgan. Ammo, shunga qaramay, yuqoridagi epik asarlarni mushtarak mavzu – shahar hayoti va urbanizatsiya muammolari bilan chambarchas bog'langan inson taqdirini badiiy yoritish o'zaro bog'lab, tutashtirib turadi.

Adabiyotning tipologik xususiyatlari, yagona badiiy maydon (sho'ro ittifoqi), ijodiy metod (sotrealizm), adabiy-badiiy jarayonning ma'lum bosqichi (60-70-yillar), fan-texnika taraqqiyotining mushtarak tamoyillari shahar muammolari yoritilgan mazkur qissa va romanlar orasida yaqin alomat hamda belgilarning shakllanishi namoyon bo'lishiga olib kelgan. O'zbek epik adabiyotidagi birinchi urbanistik roman "Olmos kamar"ni boshqa milliy adabiyotlarning shu mavzudagi namunalari bilan qiyosan o'rganish o'zbek adibining o'ziga xos badiiy dunyosini oydinlashtirishga yordam beradi.

Bu borada adabiy tanqidda ayrim fikr-mulohazalar aytilgan. Masalan, L.Terakopyan "Sharq xaritasi oldida" nomli maqolasida "Olmos kamar" va V.Rasputinning "Matyora bilan xayrlashuv". Y.Trifonovning "Almashish", I.Slutkisning "Toqqa sayohat", xitoy adibi Lyu Sinuning "Tik yechim" asarlari orasida yaqinlik borligi haqida yozgan edi. To'g'ri, adabiyotshunos bu badiiy asarlarning yaqin tomonlari haqida muxtasar ma'lumot berib, "Tik yechim" va "Olmos kamar" muqoyasiga ko'proq o'rin ajratgan.

Rus adibi Valentin Rasputinning "Matyora bilan xayrlashuv" povestida urbaniztsiya davriga xos og'riqli muammo o'z ifodasini topgan. Angaradagi ovloqqina orolchada joylashgan qishloq odamlarini ko'chirishga qaror qiladilar. Orolning quyi oqimida elektr stansiyasi qurilayotganidan u suv ostida qolishi aniq. Ammo ko'chish, yangicha shart-sharoitni qabul qilish silliqqina o'tmaydi. Chunki qishloqning uch asrdan ortiqroq tarixi bor. Bu uzoq muddat ichida odamlar, oilalararo qo'ni-qo'shnichilik, qarindosh-urug'chilik munosabatlari, o'ziga xos odat-rusmlar shakllangan. Kishilar bir-birlariga ham, o'zlari yashayotgan

zaminga, tabiatga ham o'rganganlar. Ko'chish adib tomonidan go'yo xalqning milliy fojiasi, inqirozi tarzida ko'rilgan va baholagan. Bu jarayon millat ildiziga zavol keltirishi, uni o'zligi, tarixiy – psixologik individual qiyofasidan mahrum qilishi mumkin. V.Rasputin qissasidagi asosiy badiiy – falsafiy konsepsiya ana shundan iborat.

“Olmos kamar”da ham ko'chish, uning ruhiy, ma'naviy va iqtisodiy oqibatlari bilan bog'liq muammo mavjud. Muammoning mushtarakligi bu ikki epik asarni shu masalada ma'lum ma'noda yaqinlashtirgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, L.Terakopyan yuqorida qayd etilgan maqolasida: “V.Rasputin asari motivlari “Olmos kamar”da garchi boshqacha talqinda bo'lsa-da, eshitib turadi”, - deb yozadi. Matyora va maqola muallifi aytganday chinakam “Toshkent mahallasi”ni o'ziga xos maishiy turmush, urf-odatlar, qo'ni-qo'shnihilik qoidalari bog'lab turadi. Lekin o'zbek muallifini faqat boshqa joyga borib o'rnatish masalasigina emas, an'anaviy qadriyatlar, ularning zamona bilan munosabatlari qiziqtiradi.

“Olmos kamar” epik turning roman, “Matyora bilan xayrlashuv” qissa janrida yozilgan. Binobarin, bu ikki epik asarning har biri badiiy shaklining o'z ko'lami, maydoni, tasvir usullari jihatidan bir-biridan farqlanadi. “Olmos kamar”da “Matyora bilan xayrlashuv”dan farqli ravishda ko'chish va bu tufayli yuzaga kelgan muammogina emas, janr talabi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda badiiy maydon va unda o'rta qo'yilgan masalalar birmuncha keng va ko'p. Muammolarning serqatlamligi urbanistik muammolarning rang-barang qirralarini badiiy gavidalantirishga imkoniyat yaratadi. Davr uchun dolzarb hisoblangan masala – muammollar oqimida bir oilaning qishloqdan posyolkaga

ko'chishi qissa voqea tizimi (syujeti)dan muayyan o'rin egallaydi. Muayyan deyishimizning sababi shuki, bu liniya "Olmos kamar"da "Matyora bilan xayrlashuv"dagidek yetakchi emas.

Aftidan, bu ikki asar orasida bunday mushtaraklik belgilari haqida gapirganda, adabiy ta'sirni emas, tipologik xususiyatlarni nazarda tutish lozimga o'xshaydi. "Matyora bilan xayrlashuv" qahramonining qishloqdan ko'chish oldidagi kayfiyati, xotiralari "Olmos kamar"dagi chol-kampirning chekinmalariga qaysi bir darajada o'xshash. "Olmos kamar"da ham, "Matyora bilan xayrlashuv"da ham ijodkorlarning badiiy konsepsiyasidan kelib chiqib, "zamonaviy kvartira" milliy uy-joy (o'zbeklarda – hovli, ruslarda - izba)ga qarama-qarshi qo'yilgan. Bundan tashqari, bu ikki asar qahramonlariga xos yana bir o'xshashlik shundaki – qissalar ona zaminga, yoshlar hamma narsasi muhayyo bo'lgan "semon katakka" intilishadi. Yozuvchilar buni e'tiboran qochirmaganlar.

"Olmos kamar" va "Matyora bilan xayrlashuv" qahramonlararo ma'lum bir o'xshashlik, mushtarakliklar xususida gapirganda, har bir asardagi obrazlar tizimi milliy o'ziga xosligi bilan ajralib turishini ta'kidlash joiz. Urbanizatsiya, fan-texnika taraqqiyoti va nihoyat, ijtimoiy qurilmaning milliy hayotga, milliy ruhiyatga, inson ongiga ta'siri "Olmos kamar" va "Matyora bilan xayrlashuv" badiiy konsepsiyasi, qahramonlar taqdirida ifoda topgan. "Olmos kamar"ni "Matyora bilan xayrlashuv" bilan ko'chish, tabiat, ona vatanga, avlod-ajdodlari yashab o'tgan, qahramonlarning kindik qoni to'kilgan muqaddas zaminga munosabati kabi muammolar va ularning inson psixologiyasiga ta'siri birlashtirib, yaqinlashtirib tursa, Y.Trifonovning "Almashish" povestiga urbanistik jarayonning shahar oilasi hayotiga ta'siri va uning natijasida obrazlar

milliy o'ziga xosligining badiiy yoritilishi, milliy qadriyatlar, an'analar tasviri o'zaro tutashtiradi.

Y.Trifonovning "Almashish" qissasi ham "Olmos kamar" singari shahar, shaharliklar mavzusida yozilgan. Qissa er-xotin, qaynona-kelin, qarindosh-urug`, do'st-og`aynilarning o'zaro muomala-munosabatlari, aloqalari asosiga qurilgan. Muallif bir shahar oilasi taqdirini tasvirlash orqali o'zi mansub davrning yetakchi psixologik, ma'naviy-axloqiy masalalarini badiiy aks ettirishga harakat qiladi. Qissa syujeti yirik shaharda yashaydigan bir rus oilasining kvartira almashtirishi bilan bog`liq tashvishlari, harakatlarini qamrab olgan. Asar sarlavhasi ana shunday kelib chiqadi. Bundan tashqari uning nomlanishida boshqa ramziy ma'no ham bor.

Bosh qahramon Dmitriyev uzoq yillik oilaviy turmushi davomida asta-sekinlik bilan o'zining bir talay insoniy fazilatlari – samimiyat, mehr-oqibat tuyg`ularidan uzoqlashib, loqayd, moslashuvchan kishiga aylanib qolgan. Asarda ana shu "Almashish"ning anatomiyasi, genetik, ma'naviy omillari tadqiq etildi. Muallif bosh qahramoni qissaning boshidan oxirigacha rasmiy tarzda "Dmitriyev" deb ataydi. Boshqa personajlarning murojaat, gap-so'zlaridan uning tuppa-tuzuk Viktor degan nomi borligi ham ma'lum. Yozuvchining qahramonga rasmiy qarashi asarning badiiy konsepsiyasi mohiyatidan kelib chiqqan. Asl insoniy fazilatlarni muvaqqat osoyishtalik va qulayliklarga almashish shaxsni halokatga olib boradi. "Almashish" qissasi ana shu halokat to'g`risida.

Y.Trifonov tasviridagi Dmitriyev oq ko'ngil, fikrlovchi, mulohazakor, lekin, jur'atsiz odam timsoli. Mustaqil qaror qabul qilish uchun unga iroda, jur'at yetishmaydi. Jur'atsizlik qahramon shaxsini

yemirib, uni ayanchli bir kimsaga aylantiradi. Shahar oilasi muammolari “Olmos kamar”da ham alohida o’rin tutadi. Roman syujetining asosiy qismini oila hayoti, tashvishlari, ziddiyatlari qamrab olgan. “Almashish” qissasida bo’lganiday o’zbek adibi asarida ham er-xotin, qaynona-kelin muomala-munosabatlari, qarama-qarshiliklari keng planda tasvirlangan.

P.Qodirov, Y.Trifonovlar ham jahon adabiyotining abadiy muammolaridan biri bo’lmish oilaviy ziddiyatlarda “ayol xudbinligi”ning o’rni masalasini chuqur tahlil etishga uringanlar. “Olmos kamar”dagi Vazira Y.Trifonov qissasidagi Lena kabi oshkora xudbin, munofiq xotin emas. Uning xarakterida yaxshi sifat-fazilatlar ham ko’rinib turadi. Eriga xiyonat qilmaydi, uy yumushlarini ado etadi, ro’zg’ori, uy-joyi uchun kuyib-pishadi. Erining ota-onasi, qarindosh-urug’lariga imkon boricha yaxshi muomala qilishga, ular bilan til topishga urinadi. Shunga qaramay, Vazira tabiatida muayyan darajada xudbinlik alomatlari mavjud. Eri (Abror) ota-onasiga, ayniqsa, onasiga emas, faqat o’ziga qaram bo’lishini istaydi. Bu kayfiyat, ayniqsa, roman syujetidan o’rin olgan “beshik to’yi” marosimi arafasida yaqqolroq namoyon bo’ladi. U milliy urf-odat bo’lgan “beshik to’yi”ga butunlay qarshi bo’lganiday, Abrorga ham o’z noroziligini yuqtirishga urinadi. Uy-joyi buzilib, nochorlikdan vaqtincha uylariga kelib yashayotgan qaynona-qaynotasi tashrifini yoqtirmaydi.

P.Qodirov va Y.Trifonovning o’z personajlariga nisbatan shaxsiy-individual munosabatlarida, hayotga, inosonga qarashlarida yaqinlik bor. Agar rus yozuvchisi “Almashish” bosh qahramonini hamisha “Dmitriyev” deb atasa, o’zbek adibi Vazira va Alibeklarning onasini hamisha “Zumrad Sodiqovna” deb tilga oladi. “Almashish” qissasida bo’lganiday, “Olmos kamar”da ham personajning tashqi qiyofasi, ruhiyati, harakati, muomalasi

tasviridagina emas, uning nomi, familiyasi ifodasi orqali ham ijodkorning o'z qahramonlariga xayrixohligi yoxud noxayrixohligi aks etib turibdi. Bu usul yozuvchi badiiy-falsafiy konsepsiyasini yaxshiroq ochish, oydinlashtirish ishiga ko'mak bergan.

“Almashish” qissasida bosh qahramon qaynona-kelin mojarosida o'zi sezar-sezmas xotin tarafga o'tib, ona oldidagi burchni unutadi, mustaqilligini yo'qotib, abgor kimsa holiga tushib qoladi. “Olmos kamar” romanida esa qaynona-kelin ziddiyatlari yaxshilik tomonga hal bo'ladi. Biroq bunday yechim yozuvchi tomonidan sun'iy ravishda hal qilinmagan. Azaliy milliy qadriyatlar – ota-onaga hurmat, ularni e'zozlash, oila muqaddasligi har xil mayda-chuyda gap-so'zlar, kelishmovchiliklardan baland qo'yiladi. Binobarin, mazkur badiiy muammo tasvirida bir-biriga o'xshamagan ikki xil yechim berilgan. Bunday turlicha yechim har bir ijodkorning badiiy konsepsiyasi, qahramonlar xarakteri va badiiy asarda o'z ifodasini topgan milliy-psixologik muhit taqozosidan kelib chiqqan.

“Matyora bilan xayrlashuv”, “Almashish” va “Olmos kamar” epik asarlariaro muayyan yaqinliklar haqida gapirilganda, adbiyotlararo mushtaraklikning asosiy zamini sifatida aloqaviy emas, ijtimoiy, g'oyaviy omillarni nazarda tutish kerak bo'ladi. Bu omillarga D.Dyurishinning fikricha, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy qarashlar, axloq, falsafa, san'at kabilarga xos muammolar majnun kiradi. Agar “Olmos kamar” V.Rasputinning “Matyora bilan xayrlashuv”, Y.Trifonovning “Almashish” qissalari bilan ayrim muammolar (tabiat muhofazasi, urbanizatsiyaning kuchayishi, oila) tasvirida kesishsa, I.Shamyakinning

“Atlantlar va kariatidalar” romani bilan ko’p jihatdan yaqin va mushtarakdir.

Ikki yirik epik asar o’rtasidagi o’xshashlik romanlarning nomlanishidayoq seziladi. Bu romanlarning nomida asl va ramziy ma’nolar mavjud. “Olmos kamar”ning mundarijasi ma’nosi me’morchilikka oid. Zilzila hududida joylashgan Toshkent shahrida quriladigan ko’p qavatli binolar olmosday mustahkam qattiq po’lat kamarlar bilan mustahkamlanadi. Romanning ramziy ma’nosi esa asrdan asrga, avloddan avlodga o’tib kelayotgan milliy, ma’naviy qadriyatlar zahirasini, vorisiylikni ifoda etgan. I.Shamyakin romani sarlavhasida ham shunga yaqin asl va ramziy ma’nolar mujassam.

“Atlant” yunoncha “Atlantos” so’zidan olingan bo’lib, “Xorijiy so’zlar lug’ati”da uning uch ma’nosi berilgan:

- 1) yelkasida osmon gumbazini ko’tarib turuvchi pahlavon;
- 2) me’morchilikda erkak qiyofasidagi haykal bo’lib, ustun vazifasini bajaradi.

Bu so’zning uchinchi ma’nosi anatomiyaga tegishlidir.

“Kariatida” – me’morchilikka ayol qiyofasidagi haykal, u atlant singari ustun o’rinda qo’llanilgan. “Atlantlar va kariatidalar” shahar me’morchiligi va oila muammolarini tasvirlovchi yirik epik asar bo’lganidan, sarlavhaning asl va ramziy ma’nolari mavzu, badiiy tasvir mohiyatini aks ettirgan. Roman sarlavhasidagi ikki so’z (atlant, kariatida) – aslida me’morchilikda qo’llaniladigan atamalar. Ular asar qahramonlarining kasb-kori, faoliyatini anglatib turibdi. Shu bilan birga, sarlavha chuqur falsafiy ma’no anglatadigan ramzin ham ifoda etadi. Atlant – bino qurilishda qo’llangan erkak, kariatida ayol haykalini

anglatayotgani sababli bu ramzlar romandagi ijobiy qahramonlar (erkak va ayollar)ning jamiyat mas'uliyatini o'z zimmalariga olib, taraqqiyot, istiqbol uchun yashab, kurashayotganliklarini bildiradi.

“Atlantlar va kariatidalar” ham urbanistik roman. Uning asosiy tasvir ob'yekti – zamonaviy shahar, unda yashayotgan odamlar, ularning ruhiy-axloqiy dunyosi, uy-fikrlari, kechinmalari, muammo va o'zaro munosabatlari. Yozuvchi shaharning kengayishi, kattalashishi, fan-texnika jarayonining shahar qiyofasi va shaharliklar ruhiyatiga ta'siri kabilarni bosh qahramon va boshqa personajlar hayot yo'li, ziddiyat va yaqinliklarini tasvirlash orqali badiiy tasvirlashni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Maksimning ko'p xususiyatlari – kasbga mehri, o'zini ayamay ishlashi, adolatsizlik va munofiqlikka toqat qila olmasligi, do'st-birodarlariga oqibati uni “Olmos kamar”ning bosh qahramoni Abrorga yaqinlashtiradi.

Bu ikki qahramonning dunyoqarashi, faoliyat yo'li, kurash usullarida mushtaraklik yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Qahramonlararo bunday yaqinlik, o'xshashlikning o'z zamini, asoslari bor, albatta. Qahramonlarni avvalo kasb-kor (me'morlik) tutashtirib turibdi. Ular yashayotgan davr ham asrimizning 60-70-yillaridir. Binobarin, davrning, kasb-korning uyg'un muammolari, urbanistik romanning xususiyatlari ikki qahramon orasidagi muayyan o'xshashlikni keltirib chiqargan. Bu fikrlar Maksim abrorning yoki aksincha Abror Maksimning takrori degan xulosani keltirib chiqarmaydi, albatta.

“Atlantlar va kariatidalar”dagi Makoyed, “Olmos kamar”dagi Sherzod timsollari qiyofasiz odamlarning fojiasi. Garchi Sherzod va Makoyedni salbiy personajga xos ayrim xususiyat, belgilar birlashtirib

tursa-da, ular ijodkorning munosabati, tasviri, bahosi, badiiy qurilishi, individual alomatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Ishda bu farqlar qiyosiy planda keng tadqiq qilingan. Abror, Karnachning xarakteri, faoliyati syujet davomida ma'lum ma'noda salbiylashgan Sherzod, Sayfulla Rahmonovich, Ignatovich, Makoyed va unga o'xshaganlar bilan bo'lgan bahs-munozara, to'qnashuv, ziddiyatlarda Shaxs, Inson sifatidagi mohiyati ochilib, shu bilan bir qatorda yanada shakllanib, rivojlanib boradi.

Abror o'zbek milliy me'morchiligi an'analari, yutuqlarini g'arb (Yevropa) me'morchiligi tajribalariga uyg'unlashtirish tarafdori. U shahar qurilishida milliy o'ziga xoslikni saqlash maqsadida ko'p fikrlaydi, izlanadi. Ammo izlanishlari ma'lum kuch va guruhlarining keskin qarshiligiga sabab bo'ladi. Faqat azaliy raqibi Sherzodgina emas, ishxonadagi rahbari Sayfulla Rahmonovich ham uni "milliy mahdudlik"da ayblaydi. Bu zayldagi aybnoma ruslashtirish jarayoni faollashgan sho'ro tuzumi yillarida katta ko'ngilsizliklar va xavf tug'dirishi aniq edi. Sayfulla Rahmonovich o'zbek adabiyotidagi manqurb obrazi bo'lib, Chingiz Aytmatovning mashhur manqurtini yodga soladi. Ikkala adib ham realistik badiiy prinsiplar asosida mana shu ziddiyatni ancha chuqur, hayotiy asosda tasvirlashga harakat qilgan. Lekin shu bilan bir qatorda asarlarda sobiq Ittifoq adabiyotining yagona metodi hisoblangan sotsialistik realizmning salbiy alomatlari ham mavjud. Bu ayniqsa, asar badiiy konfliktining yechimida yaqqol ko'rinadi.

"Olmos kamar"da ixtilof shahar, "Atlantlar va kariatidalar"da esa viloyat partiya qo'mitasining aralashuvi hamda ishtiroki tufayli barham topadi. Bu hayot ziddiyatlarini sun'iy ravishda yechishdan iborat bo'lgan

stereotipning ko'rinishidir, albatta. To'g'ri, konfliktning bunday yechimida aybni faqat yozuvchi zimmasiga yuklash ham insofdan emas. Chunki sotrealizm adabiyoti odatda ijodkordan mana shu kabi yechimlarni qat'iy talab qilar edi. "Olmos kamar"da ham, "Atlantlar va kariatidalar"da ham tabiatni asrab-avaylash muammosi markaziy o'rinlardan birini egallaydi.

Abror va Maksim uchun me'morchilikda katta va kichik narsa yo'q, aniqrog'i, kichikdan katta yuzaga keladi, shakllanadi. "Olmos kamar" qahramoni otasi qurgan obod hovlini, uning qabriga o'rnatiladigan mo''jaz yodgorlikni "Toshkent arxitekturasining kichkina bir ulushi" deb hisoblasa, "Atlantlar va kariatidalar"ning markaziy personaji oddiy oziq-ovqat do'konini shahar me'morchilik majmuasidan ajratmaydi. "Olmos kamar"dagi Abror, "Atlantlar va kariatidalar"dagi Maksimning oilaga, turmush o'rtog'iga muhabbat tuyg'usi, farzandlarga qarashlarida ma'lum bir yaqinlik, hamohanglik bor. Ammo bu ikki qahramonning oilaviy taqdirida jiddiy farqlar mavjudligini ham ko'rish mumkin.

Epik janr sifatidagi romanning keng badiiy maydoni, ko'lami, imkoni darajisidan kelib chiqqan muallif faqat Maksim-Dasha oilasinigina emas, bir necha (Viktor-Polya, Makoe-Nina) oila taqdiri, hayotini aks ettirgan. I.Shamyakin Viktor oilasi tasvirida o'zi yashagan tarixiy davr, shart-sharoit uchun g'oyat muhim hisoblangan ijtimoiy muammoni aks ettirgan. Ayni vaqtda urbanizatsiya muammolari hamma oilalarga ham salbiy ta'sir etavermasligini badiiy dalillagan. Imon, e'tiqodi, ma'naviyati mustahkam bo'lgan kishilar qiyinchiliklarga qaramay o'z erklarini ham, oilalarini ham saqlab qolishlarini mumkinligini e'tirof etgan. I.Shamyakin

romanida Viktorning rafiqasi Polya obrazi alohida o'rin egallaydi. Yozuvchi uning xarakterini, odobi, muomalasini, asosan bosh qahramon Maksim nigohi orqali tavsiflab, baholab boradi.

Polyani nafaqat “Atlantlar va kariatidalar” romanidagi xotinlar, biz qiyosiy tahlil uchun tanlab olgan. “Matyora bilan xayrlashuv”, “Almashish”, “Olmos kamar” epik asarlaridagi ayollar bilan taqqoslaganda ham, bu badiiy obrazning ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, badiiy tarifdan mukammal ishlanganini ko’rish mumkin. Polya obrazida taniqli belorus adibining ayol haqidagi konsepsion qarashi mujassamlashtirilgan. Bunday konsepsion qarash I.Shamyakinni ulug’ adib Lev Tolstoy badiiy dunyoqarashiga yaqinlashtiradi. “Olmos kamar” hamda “Atlantlar va kariatidalar” romanlari ko’p jihatdan – mavzu, xarakter talqini, ijtimoiy va psixologik jihatdan bir-biriga o’xshash. Ammo ayrim axloqiy-ma’naviy muammolar tasviri va tahlilida jiddiy tafovut bor. Har ikki romanda biz tahlil qilayotgan muammo bilan uzviy bog’liq bo’lgan o’lim tasviri bor.

O’lim milliy tafovut va chegaralarni tan olmaydi. Shu ma’noda u umuminsoniydir. Ammo har bir xalq, uning vakili o’limni qarshilashi, ta’ziya rasm-rusumlarida muayyan farq bo’lishi mumkin. Mana shu farqni “Olmos kamar” hamda “Atlantlar va kariatidalar” romanlarining muqoyasaviy tahlilida ko’rsa bo’ladi. Belorus va o’zbek adibi romanlardagi ta’ziya bilan bog’liq badiiy lavhalar bir-biridan jiddiy farqlanadi. “Atlantlar va kariatidalar”da Tatyana xola ta’ziasida ayrim shirakayf mujiklar latifa aytib, o’zaro kulishib o’tirgani tasvirlanadi. Bu hech bir xalq, jumladan, belorus xalqi milliy turmush tarziga ham xos emas, albatta. Biroq, romanda ana shunday epizod mavjud.

I.Shamyakinning bu badiiy lavhani roman matniga kiritishidan asosiy badiiy maqsadi ommaviy manqurtlik va sho'roviy aqidalar sharoitida insonning o'z milliy, insoniy zaminidan ajralib, uzoqlashib ketayotganini ko'rsatishdir. "Olmos kamar"da esa A'zam ota ta'ziasiga yig'ilgan odamlar marhum xotirasini hurmatlab, barcha milliy rasm-rusumlarga rioya qiladilar. Faqat qarindosh-urug', yor-birodarlargina emas, mahalladoshlar, hatto begonalar ham ta'ziadorlarga hamdardliklarini izhor etadilar. Bu lavha ayrim milliy qadriyatlar barbod bo'layozgan sho'ro mustabid saltanati sharoitida ham o'zbek xalqi o'z milliy-ma'naviy qadriyatlariga, an'analariga sodiq qolishga harakat qilgani va bunga erisha olgani to'g'risidagi haqiqatni ko'rsatadi. "Olmos kamar" hamda "Atlantlar va kariatidalar" romanlarining adabiy-badiiy mushtarakligi mavzu (urbanistik jarayon tasviri), makon (shahar), zamon (60-70-yillar), xarakter, muammolar majmui bilangina cheklanmagan.

Qiyosiy tahlil shundan dalolat beradiki, ikki taniqli ijodkorni hayotni, insonni tasvirlash prinsiplari, adabiy usul, qahramonga munosabat, badiiy obraz tanlash, badiiy asar tiliga munosabatdagi mushtarakliklar ham birlashtirib turibdi. Biroq, bundan qat'iy nazar, bu asarlar muvaffaqiyatini ulardagi mushtarak xususiyatlar emas, badiiy o'ziga xoslik, milliy xarakter yaratishdagi individual uslub belgilaydi, albatta. Lekin bu badiiy o'ziga xos fazilatlar belorus va o'zbek adibi ijodiy prinsiplaridagi ayrim mushtaraklikni inkor etmaydi.

XULOSA

P.Qodirovning “Olmos kamar” romanini A.Qodiriyning “O’tkan kunlar”, V.Rasputinning “Matyora bilan xayrlashuv”, Y.Trifonovning “Almashish”, I.Shamyakinning “Atlantlar va kariatidalar” asarlari bilan qiyosiy tadqiq etish quyidagi xulosaviy fikrlarga olib keldi:

a) “Olmos kamar”ni boshqa milliy adabiyotlar vakillari tomonidan yaratilgan urbanistik yo’nalishdagi epik asarlar bilan qiyosiy tekshirish va tahlil etish ma’lum prinsiplar bo’yicha bir guruhga jamlangan so’z san’atlariga xos tipologik, aloqaviy xususiyatlarni anglash bilan bir qatorda o’zbek muallifi yozgan romanning o’ziga xos jihatlari – poetikasi, badiiy olami, qahramonlarning badiiy strukturasidagi fazilatni chuqurroq anglash, yaxshiroq tadqiq etish va baholashga imkon beradi;

b) urbanistik adabiyot namoyandalari o’z diqqat-e’tiborlarini urbanizatsiya ta’siridagi ma’naviy-axloqiy, psixologik muammolarga qaratadi. jahon doirasida kechgan shiddatli texnikaviy taraqqiyotning asarlar davomida barqarorlashib ulgurgan milliy hayot tarzi, urf-odatlar, kishilararo aloqa-muammolar, qarindosh-urug’chilik, do’st-birodarlik, vijdon, imkon, halollik kabi tuyg’ularga ta’siri; bu ta’sirni to’xtatish yoki mo’tdillashtirish, har bir millatning jon tomiri va o’zligi hisoblangan qishloqning shahar soyasida kuchsizlnib, yo’qolib ketayotganiga qarshi o’ziga xos norozilik kayfiyatlari bu adiblar asarlarining markaziga qo’yilgan;

v) so’z san’atining asosiy tasvir ob’yekti – inson. Bu qonuniyat urbanistik mavzuda yozilgan asarlarda ham shak-shubhasiz amal qiladi. Adiblar yirik korxonalar, bahaybat inshootlar, zamonaviy binolar, qudratli mashinalar, texnika vositalari, yangi transport turlarini tasvirlar ekan, bu

narsaga insonni munosabati, ular bilan inson orasidagi bog`lanish yohud ziddiyatlar, bu jarayon davomida inson ruhiyatining evrilish – o`zgarishlarini chuqurroq badiiy tadqiq etishga harakat qilganlar.

Shunday qilib, malakaviy bitiruv ishimiz doirasiga kiruvchi epik adabiyot namunalarida inson, kengroq miqyosda olib ko`rilganda jamiyatning o`tkir, dolzarb muammolari hayotning o`zi kun tartibiga chiqarib qo`ygan ma`naviy-axloqiy masalalar bilan chambarchas aloqadorlikda badiiy tasvirlangan;

g) tahlil doirasiga tortilgan badiiyat namunalarining pafosi, uslubi, kompozitsiyasi, sujeti, makoni, milliy o`ziga xosligi bir-biridan farq qilishiga qaramasdan ularni urbanistik yo`nalish, mavzu birlashtirib-yaqinlashtirib turadi.

Taniqli o`zbek adibi P.Qodirov tomonidan hozirgi adabiy jarayonning aniq bir bosqichida yaratilib, shu tarixiy davr va badiiy muhitning yetakchi belgi-xususiyatlarini o`z badiiy olamida mujassamlashtirgan “Olmos kamar” romanini epik turning yirik shakli sifatida o`rganish, obrazlar silsilasini tahlil etish va uni boshqa urbanistik yo`nalishdagi epik asarlar (“Almashish”, “Matyora bilan xayrlashuv”, “Atlantlar va kariatidalar”) bilan muqoyasaviy tekshirish quyidagi umumlashma, xulosalarga olib keldi:

- “Olmos kamar” birinchi navbatda shahar muammolariga, ularning inson ruhiyatiga ta`sirini badiiy gavdalantirishga bag`ishlangan romandir. Shahar hayoti haqida yozilgan har qanday asar ham urbanistik adabiyot namunasi bo`lavermaydi. Masalan, ozarbayjon adibi Anorning “Oq ko`rfaz”, “Dante yubileyi”, “Besh qavatli uyning oltinchi qavati” qissalari, rus adibi S.Zaliginning “Janubiy Amerika varianti”, litvalik

yozuvchi M.Slutkisning “Toqqa sayohat” romanlari shahar mavzusini yoritgan, ammo bular urbanistik asar emas;

- urbanistik adabiyotda fan-texnikaning shiddatli taraqqiyoti, shahar qurilishi, o'sishi, ulkanlashishining jiddiy muammolari, jarayon va o'zgarishlarning inson ruhiyati va xarakteriga salbiy yohud ijobiy ta'siri kabilar badiiy tadqiq etiladi;

- “Olmos kamar” romaniga ana shu mezonlar nuqtai nazaridan qaralsa, unda urbanistik asarning asosiy belgi va xususiyatlari borligi ma'lum bo'ladi. Ayniqsa, bu epik asarning shu yo'nalishdagi “Matyora bilan xayrlashuv”, “Almashish”, “Atlantlar va kariatidalar” singari roman va qissalar bilan qiyosiy tahlili urbanistik mezon va belgilarning o'ziga xos jihatlarini oydinlashtiradi;

“Olmos kamar”ning o'zbek nasrida birinchi urbanistik roman sifatida maydonga kelishi shu nuqtai nazardan adabiy jarayon taraqqiyotida muhim hodisa bo'ldi;

- P.Qodirovning epik ijodiga o'zbek nasri an'analari, ayniqsa, “O'tkan kunlar” badiiy olamidan olingan saboqlar samarali ta'sir o'tkazganini qiyosiy-tipologik tahlil aniq ko'rsatadi. Ayniqsa, “O'tkan kunlar” va “Olmos kamar”ning inson qalbi va o'zbek oilasidagi ayrim muammolar tasviridagi mushtarakligida genetik aloqaviy omil muhim rol o'ynagan.

- “Olmos kamar”, “Matyora bilan xayrlashuv”, “Almashish”, “Atlantlar va kariatidalar”ni o'zaro qiyosiy - ilmiy tahlil qilish tipologiya, adabiy-badiiy mushtaraklik, har bir milliy adabiyot namunasining adabiyotlararo jarayon va milliy adabiyotdagi o'rni, ularning urbanistik

badiiy yaratma sifatidagi xususiyatlari haqida muayyan fikrlarga olib keladi;

- axloqiy-falsafiy va ijtimoiy-psixologik muammolar mushtarakligi biz tahlil uchun tanlab olgan badiiy asarlardagi bir-biriga yaqinlikni ta'minlaydi. Biroq, badiiyatdagi betakrorlik, muammolarni hal etishda har bir ijodkorning o'ziga xos yo'li, ijodiy uslubi, va shular asosida kelib chiqqan badiiy yechimlar bir-birini takrorlamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Олмос камар” – урбанистик роман//Ёшлик//Ўзбек тили ва адабиёти.-1997. № 6. Б. 61-63.
2. Урбанистик жараённинг миллий руҳга таъсири//Ўзбек тили ва адабиёти. 1998. № 6. Б. 44-46.
3. “Олмос камар” романи услубига доир//Республика ёш адабиётшуносларининг анъанавий илмий конференцияси материаллари. Т., 1993. Б. 5-6.
4. Теракопян Л. Над картой Востока//Вопросы литературы. -1986. №2. С. 17-39.
5. П.Қодиров. Олмос камар. –Т. Адабиёт ва санъат. 1983.
6. Матёқубов А. Ёзувчининг “Олмос камар”и//Тошкент ҳақиқати -1977.
7. Қодиров П. Олмос камар. Т.: Ўқитувчи, 1992. Б. 202.
8. Қодиров П. Олмос камар. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983. Б. 4.
9. Ғофуров И. Инсонийлик – яхлит туйғу//Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1984.
10. Шарафутдинов О. Ҳамиша халқ хизматида// Ўзбекистон маданияти. 1979.
11. Mirzayev S. XX asr o`zbek adabiyoti. Т., “Yanfi asr avlodi”. 2005.